



## TURLI DAVLATLARDA BACHADON TANASI SARATONINING EPIDEMIOLOGIYASI

*Latifjonova Gulnoza Erkinjon qizi*

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Umumiy onkologiya magistr*

*Pulatova Nigora Sobirovna RIO va RIATMFVF*

### *Annatatsiya*

Ushbu maqolada jahonning turli davlatlari bo'yicha endometriy saratonining tarqalish darajasi va o'lim ko'rsatkichi, omon qolish darajasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

### *Аннотация*

В данной статье представлена информация о распространенности рака эндометрия в разных странах мира, смертности и выживаемости.

### *Annotation*

This article provides information on the prevalence of endometrial cancer in different countries of the world, the death rate, and the survival rate.

Bugungi kunda ayollar jinsiy a'zolari saratoni bilan kasallanish ortib bormoqda. Bular orasida bachadon tanasi saratoni kasallanish va o'lim ko'rsatkichiga ko'ra yuqori o'rinlarni egallab turibdi. Butun Dunyo Sog'liqni saqlash Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yilda dunyoda 382 069 nafar BTS bilan kasallanish holati qayd etilgan bo'lsa, shundan o'lim ko'rsatkichi 89 929 nafarni tashkil etgan. Bu esa 2018 yilda ayollar reproduktiv organlari o'sma kasalliklari ichida tarqalish darajasiga ko'ra 2-o'rinni, o'lim ko'rsatkichiga ko'ra esa 4-o'rinni egallaganligini ko'rsatdi. 2040 yilga kelib yuqoridagi ko'rsatkichlarning 50% ga o'sishi taxmin qilinmoqda. 2018 yil AQSHda 110 070 nafar ayollar reproduktiv organlari xavfli o'sma kasalliklari aniqlangan bo'lib, bu ko'rsatkich mazkur yilda hisobga olingan jami o'sma kasalliklarining 13% ini tashkil etadi. SHundan 162 nafar ayoldan 1 nafarida bachadon bo'yni saratoni, 78 nafar ayoldan 1 nafarida tuxumdon saratoni, har 35 nafar ayoldan 1 nafarida BTS



qayd etilgan. AQSHda 2018 yil 63 230 ta BTS bilan kasallanish holati qayd etilgan bo'lib, 11 350 tasi mazkur kasallik tufayli hayotdan ko'z yumgan. BTS standartlashtirilgan kasallanish darajasi 100 ming aholiga 26.0 ni tashkil etdi. Rossiyada 2017 yil ushbu ko'rsatkich 100 ming aholiga 18.7 ni tashkil etgan, birlamchi aniqlangan holatlar soni esa 25 000 dan oshdi. Rossiyada kasallanish 2007 yildan 2017 yilgacha 41%ga oshdi. AQSHda ushbu o'n yillikda kasallanish ko'rsatkichining o'sishi 1,3%, o'lim ko'rsatkichining o'sishi esa 1,6% ni tashkil etdi.

BTSning asosiy va birinchi simptomi- postmenopauza davri fonida qindan qonli ajralma kelishi. Ushbu belgi orqali 80% dan ortiq holatlarda kasallikni erta bosqichlarda aniqlash mamkin. Bu esa bemorning hayot davomiyligi uzayishiga sabab bo'ladi.

Afrika davlatlari o'lim ko'rsatkichi bo'yicha yuqori o'rinda turadi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, Jazoirda 1990 yildan 2017 yilgacha kasallik o'sish darajasi 40-60% ni tashkil etdi.

*Endometrial saratonning aksariyat holatlari sanoati rivojlangan mamlakatlarda uchraydi, bu yerda kasallanish darajasi 100 000 ga 10-25 tani tashkil qiladi. Xalqaro Saraton tadqiqotlari agentligi ma'lumotlariga ko'ra, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda bachadon saratoni bilan kasallanishning standart darajasi 15,5 ni tashkil qiladi, bu rivojlanayotgan mamlakatlarga qaraganda 7-10 barobar yuqori.*

*Endometriy saratoni so'nggi o'n yillikda ayollarning xavfli kasalliklari tarkibida yetakchi o'rinni egalladi. JSST hisob-kitoblariga ko'ra, 2012 yilda dunyo bo'ylab 300 mingdan ortiq yangi BTS bilan kasallanish holatlari qayd etilgan bo'lib, ushbu kasallik bilan kasallanish davomiyligi 5 yilgacha bo'lgan bemorlar soni esa 1,2 milliondan oshgan. Rossiya Federatsiyasida BTS 2012 yilda 20 mingdan ortiq yangi kasallanish holatlari qayd etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich ayollar orasida saraton kasalliklari bilan kasallanish bo'yicha uchinchi o'rinni*



*egallashiga sabab bo'lgan. GLOBOCAN ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda BTS bilan kasallanish 21% ga oshdi. Bir qator olimlarning fikriga ko'ra, rivojlangan davlatlarda BTS bilan kasallanish sonining o'sishi ushbu kasallikning birinchi turi bilan kasallanishning ortishi, ya'ni semizlik bilan bog'liq. 2030 yilga kelib butun dunyo bo'yicha semiz odamlar soni uch baravarga ko'payib, 1,1 mlrddan oshishi taxmin qilinmoqda. Rossiya Federatsiyasida 20 yoshdan oshgan ayollarning 60% i ortiqcha vaznga ega. Semizlik bilan bir qatorda BTS boshqa kasalliklar bilan ham birga kelishi mumkin : gipertenziya 59% , 2 tur qandli diabet 26%, giperlipidemiya 31%. Xalqaro Saraton Tadqiqotlari agentligining bergan ma'lumotlariga ko'ra, 2012 yilda butun dunyo bo'yicha 14.2 mln kishiga saraton kasalligi tashxisi qo'yilgan. Shu bilan birga, malign neoplazmalar bilan kasallanganlarning umumiy soni esa 32,6 mln ga yetgan. 2012 yilda 8,2 mln kishi saraton kasalliklari sabab hayotdan ko'z yumdi, ushbu ko'rsatkich yuqumli bo'lmagan kasalliklardan o'lim ko'rsatkichining 22 foizini tashkil etdi. Ayollar orasida esa 3,543 888 nafari saraton kasalligi tufayli vafot etdi. 2008 yilda dunyo bo'yicha 287 000 BTS bilan kasallanish holati qayd etilgan bo'lib, yoshga qarab standartlashtirilgan kasallanish darajasi 100 000 nafar ayolga 8,2 ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2012 yilga kelib 320 000 va 8,3 ni tashkil etdi. 2008 yilda ayollar arasida o'sma kasalliklari bilan kasallanish bo'yicha sut bezlari, yo'g'on ichak, bachadon bo'yni, o'pka, oshqozon o'smalaridan keyin 6- o'rinni egalladi. 2012 yilga kelib esa , sut bezlari, yo'g'on ichak, bachadon bo'yni va o'pka saratonidan so'ng 5- o'rinni egalladi. Shuni takidlash kerakki, BTS bilan kasallanish ko'rsatkichi dunyoning turli joylarida turlicha qayd etiladi. Eng yuqori ko'rsatkichlar Shimoliy Amerikada (19,1), Sharqiy va Markaziy Yevropada (15,6) joylashgan davlatlarda qayd etiladi. BTS bilan kasallanish Rossiyada 2012 yilda 20 000 dan ortiqni tashkil etgan bo'lib, bu raqamlar ayollar orasida o'sma kasalliklari bilan kasallanish bo'yicha 3- o'rinni egallashiga sabab bo'ldi. GLOBOCAN ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilga kelib, BTS bachadon tanasi*



saraton bilan kasallanish darajasi 21% ga oshdi, har yili tashxis qo'yilgan kasallik holatlari soni esa 386 570 ga yetdi, Rossiyada esa 5% ga ortganligi qayd etildi.

IARCning "5 qit'ada saraton" so'nggi nashriga ko'ra, ba'zi mamlakatlarda BTS bilan kasllanish darajasiga ko'ra Rossiya, Finlyandiya, Estoniya davlatlari yuqori o'rinlarni egallaydi. 2015 yilda Rossiyada 24 422 nafar bemorda yangi BTS bilan kasallanish holati qayd etilgan. 2005 yildan 2015 yilgacha bo'lgan vaqt davomida yangi tashxis qo'yilgan bemorlarning umumiy soni 24,58%ga ortdi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, har yili 300 mingdan ortiq yangi BTS bilan kasallanish holati qayd etiladi. Kasallanish 83,2% holatlarda dastlabki holatlarda (1-2) aniqlanadi. Xalqaro Saraton Tadqiqotlari agentligining (IARC) bergan ma'lumotlariga qaraganda, 2018 yilda butun dunyo bo'yicha 382 069 ta BTS bilan kasallanishning yangi holati qayd etilgan. Mazkur yilda 89 929 nafar ayol ushbu kasallik natijasida hayotdan ko'z yumgan. 2018 yilda Rossiyada 26 mingdan ortiq ayolda yangi BTS bilan kasallanish holati qayd etilgan. Mazkur yilda Rossiyada ushbu kasallik ayollar orasida uchrashi bo'yicha teri saratoni va ko'krak saratonida so'ng uchinchi o'rinni egalladi. So'nggi 10 yil ichida Rossiya Federatsiyasida kasallanish darajasi 30,3% ga oshdi. 2018 yilda O'lim ko'rsatkichi bo'yicha kasallik 9- o'rinni egalladi. Amerika Saraton Jamiyatining bergan ma'lumotlariga qaraganda, BTS bilan kasallangan bemorlarning 5 yillik yashovchanlik darajasi 81%ni tashkil etadi. Yashovchanlik darajasi bachadon tanasining mahalliy saratoni bilan kasallangan bemorlarda – 95%, saraton bachadonda tarqalgan bemorlarda – 69%, metastatik BTS aniqlangan bemorlarda esa 17% ni tashkil etadi

2016 yildagi ma'lumotlarga ko'ra, MDX mamlakatlarida, xususan, O'zbekiston, Qirg'ziston, Qozog'iston, Moldovada ushrash chastotasi 5 dan 11 gacha (100 kishiga), Rossiya va Belorusiyada 18 dan 23 gacha bo'lgan



*ko'rsatkichni tashkil etadi. 2011 yildan 2016 yilgacha ushbu ko'rsatkich 3% dan 13% gacha o'sishi kuzatildi. Ozarbayjonda esa 8% ga kamayish qayd etildi. Rossiyada kasallanishning o'rtacha yoshi 63 yoshni tashkil etdi. Kasallanish ko'rsatkichi Yevropa davlatlarida, xususan, Avstriya, Niderlandiya, Estoniyada 11 dan 13 gacha, Irlandiya, Slovakiya, Sloveniya, Litvada 19 gacha kuzatiladi. 2016 yilda BTS dan o'lim korsatkichi 4 ni tashkil etdi.*

*2020 yildagi ma'lumotlarga ko'ra, bachdon tanasining o'smasi bachadon bo'yni saratonidan keyin ikkinchi o'rindagi ayollar reproduktiv organlari o'sma kasalligi hisoblandi. Ayollar orasida xavfli o'sma kasalliklari bilan kasallanish bo'yicha oltinchi o'rinda turadi. Ya'ni kasallangan har yigirmanchi ayolda endometriy saratoni tashxisi qo'yiladi. 2020 yilda dunyo bo'yicha 417 mingdan ortiq yangi BTS bilan kasallanish holati qayd etilgan. Bu ko'rsatkich esa har 100 ming ayolga 8.7 ni tashkil etadi.*

*Buyuk Britaniyada Ilmiy statistika boshqarmasi va tadqiqotchilari aholining kasallanishi haqida ma'lumot to'playdi. Ular 5 yoki 10 yillik yashovchanlik haqida axborot beradilar. Angliyada endometriy saratonining 2013-2017 yillarda tashxis qo'yilgan ayollar orasida har bir bosqichi uchun yashovchanlik statistikasi quyidagicha*

*Amerika Qo'shma Shtatlarida 2023 yilda yangi BTS bilan kasallangan 66 200 nafar bemor ro'yxatga olingan bo'lib, bu mazkur yilda qayd etilgan jami saraton kasalliklarining 3.4% ini tashkil etadi. 2023 yilda xavfli o'sma kasalliklaridan vafot etganlarning taxminiy miqdori 13 030 nafarni tashkil etsa, shundan 2.1% ini BTS natijasida hayotdan ko'z yumgan ayollar tashkil etadi. 2013-2019 yillarda AQShda nisbiy yashovchanlik darajasi 81.0% ni tashkil etdi. 100 000 kishiga yangi aniqlangan kasallik va o'lim darajasi quyidagicha: yangi aniqlangan BTS holatlari yiliga 100 000 nafar ayolga 27.6 ni tashkil etgan bo'lsa, o'lim korsatkichi esa har yili 100 000 nafar ayolga 5.1 ni tashkil etadi. 2017-2019 yillardagi ma'lumotlarga qaraganda, ayollarning taxminan 3.1% i BTS bilan*



*kasallangani qayd etilgan. 2020 yilda Amerikada 845 825 nafar ayol BTS kasalligi bilan ro'yxatga olingan. Ushbu kasallik asosan 45-74 yoldagi ayollar orasida ro'yxatga olingan. Ayollarning o'rtacha yoshi 63 yoshga to'g'ri keladi. Ushbu kasallikdan asosan o'rta va katta yoshdagi ayollar vafot etadi. BTS AQShda xavfli o'sma kasalliklaridan o'limning o'n to'rtinchi asosiy sababi hisoblanadi. 2016-2020 yillardagi ma'lumotlarga qaraganda, o'lim darajasi yiliga 100 000 nafar ayolga 5.1ni tashkil etadi. O'lim ko'rsatkichi asosan 65-74 yoshli ayollar orasida yuqori darajaga ega. O'rtacha o'lim yoshi esa 70 yoshga to'g'ri keladi. AQShda BTS ayollar orasida tarqalishiga ko'ra to'rtinchi o'rinda turadi. 2020 yilda butun dunyo bo'yicha 417 367 nafar ayolga bachadon saratoni tashxisi qo'yilgan bo'lsa, shulardan 90% dan ortig'ini endometriy saratoni tashkil etadi. Qo'shma Shtatlarda kasallik tashxisi qo'yilganlarning umumiy soni 49 va undan kichik ayollar orasida har yili deyarli 2% ga, mazkur yoshdan yuqori ayollar uchun esa 1%ga oshib borayotganligi kuzatildi. 45 yoshgacha bo'lgan ayollar orasida kasallik kamkan kam holatlarda qayd etiladi. Taxminan 69% ayollarda kasallik erta bosqichlarda aniqlanadi. 2020 yilda dunyo bo'yicha 97 370 nafar ayol bachadon saratonidan vafot etgan. AQShda besh yillik nisbiy yashovchanlik darajasi 81%ni tashkil etadi. Bugungi kunda AQShda 600 000 dan ortiq ayol endometriy saratonidan omon qolganligi haqida ma'lumotlar berilgan.*

	<b>Keng tarqalgan saraton kasalligi turlari</b>	<b>2023 yilda yangi aniqlanganlar soni</b>	<b>2023 yilda o'lim soni</b>
1.	Sut bezi saratoni	297 790	43 170
2.	Prostata saratoni	288 300	34 700
3.	O'pka va bronxlar	238 340	127 070




	<b>Keng tarqalgan saraton kasalligi turlari</b>	<b>2023 yilda yangi aniqlanganlar soni</b>	<b>2023 yilda o'lim soni</b>
	saraton		
4.	Yo'g'on ichak saraton	153 020	52 550
5.	Teri melanomasi	97 610	7,990
6.	Siydik pufagi saraton	82 290	16 710
7.	Buyrak saraton	81 800	14 890
8.	Noxojkin limfomasi	80 550	20 180
<b>9.</b>	<b>Bachadon saraton</b>	<b>66 200</b>	<b>13 030</b>
10.	Oshqozonosti bezi saraton	64 050	50 550

*AQShda BTS ayollar orasida tarqalishiga ko'ra to'rtinchi o'rinda turadi. 2020 yilda butun dunyo bo'yicha 417 367 nafar ayolga bachadon saraton tashxisi qo'yilgan bo'lsa, shulardan 90% dan ortig'ini endometriy saraton tashkil etadi. Qo'shma Shtatlarda kasallik tashxisi qo'yilganlarning umumiy soni 49 va undan kichik ayollar orasida har yili deyarli 2% ga, mazkur yoshdan yuqori ayollar uchun esa 1%ga oshib borayotganligi kuzatildi. 45 yoshgacha bo'lgan ayollar orasida kasallik kamkan kam holatlarda qayd etiladi. Taxminan 69% ayollarda kasallik erta bosqichlarda aniqlanadi. 2020 yilda dunyo bo'yicha 97 370 nafar ayol bachadon saratonidan vafot etgan. AQShda besh yillik nisbiy yashovchanlik*



darajasi 81%ni tashkil etadi. Bugungi kunda AQShda 600 000 dan ortiq ayol endometriy saratonidan omon qolganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Endometriy saratonining geografik tarqalishi tuxumdon saratoniga o'xshaydi. Dunyoda 142 000 nafar ayollardagi xafli o'sma kasalliklarining 3.7% ini mazkur kasallik tashkil etadi. Rossiyada har yili 4 mingdan ortiq bachadon saratoni bilan kasallangan ayollar ro'yxatga olinib, shulardan endometriy saratoni va bachadon bo'yni saratonining nisbati Yevropa davlatlarida va AQShda 1:2 dan 1:7 gacha to'g'ri keladi.



Ayollarda xavfli o'sma kasalliklari bilan kasallanish va o'lim ko'rsatkichi (GLOBOCAN, 2018).

Ukrainada 2020 yildagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, 82 481 nafar ayolda BTS kasalligi qayd etilgan bo'lib, kasallik ayollar orasida tarqalish darajasiga ko'ra to'rtinchi o'rinni egallagan.

Dunyo bo'ylab 2012 yilda 319 605 ta yangi BTS bilan kasallanish holati qayd etilgan bo'lib, o'rtacha kasallanish 100 000 ayolga 8.2 ni tashkil etadi. Eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan mamlakatlar quyidagilar: har 100 000 ayolga nisbatan





*kasallanish darajasi Makedoniyada 29, Lyuksemburgda 24.2, Chexiyada 17.97, Gayanada 22.65, Serbiyada 17.8, Bolgariyada 17.83 va Rossiya Federatsiyasida esa 16.2 ga teng. Afrika mamlakatlarida esa kasallanish darajasi past ko'rsatkichlarga ega, ya'ni 3.5, Hindistonda 2.32 ga teng. Janubiy Amerikaning bir qator davlatlarida, jumladan Kolumbiya, Peru, Boliviyada, shu bilan birga Qozog'iston Respublikasida barqaror o'sish ko'rsatkichlarining yo'qligi bilan ajralib turadi.*

*Endometriy saratoni ayollardagi xavfli o'smalarining 4.8% ini tashkil etadib, dunyo bo'yicha ayollar orasida xavfli o'sma kasalliklari bilan kasallanish bo'yicha sut bezi saratoni, yo'g'on ichak saratoni, bachadon bo'yni saratoni, o'pka va oshqozon saratonidan keyin 6- o'rinni egallaydi. Ushbu saraton kasalligi geografik joylashuv, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va insonlarning irqiga qarab farq qiladi. Yuqori kasallanish ko'rsatkichi Gavayi orollarida qayd etilgan bo'lib, bu 100 000 kishiga 23,4 ga to'g'ri keladi. Kavkaz ayollari va qora tanli ayollarga har 100 000 nafariga 25,2 kishi to'g'ri keladi. Yaponiyada esa kasallanish ko'rsatkichi har 100 000 nafar ayolga 3,5 ni tashkil etadi.*

*2012-2016 yillarda bachadondagi xavfli o'smalar bilan kasallanish darajasi har 100 000 nafar ayolga 4,6 ni tashkil etadi. Malayziya Milliy Saraton Uyushmasining statistik ma'lumotlariga qaraganda, 224 nafar ayollardan bir nafarida bachadon tanasi saratoni rivojlanish xavfi mavjud. Endometriy saratoni Malayziyada, asosan, ayollarda uchrashi o'rtacha 51 yoshga to'g'ri keladi. Malayziya Milliy Saraton Uyushmasining statistik ma'lumotlariga ko'ra, endometriy saratoni bilan kasallanish 55 yoshdan 64 yoshgacha bo'lgan ayollar orasida qayd etilgan. Premenopauzal guruhga mansub 40 yoshgacha bo'lgan ayollar orasida endometriy saratoni menopauza davridagi ayollarga nisbatan kasallanish darajasi 20% ga kam uchraydi. .*

*O'zbekiston Respublikasi Ixtisoslashtirilgan Onkologiya va Radiologiya markazining ma'lumotlariga ko'ra 2014 yilda kasallanish 100 000 aholiga 1.6 ni*



*tashkil etgan bo'lib, hisobda turuvchi bemorlar soni 5572 ga yetgan. 2017 yilda esa bu ko'rsatkich 1.7 ni tashkil etgan. Hozirgi kunda mamlakatimizda onkologik kasalliklar tarkibida BTS (bachadon tanasi saratoni) ayollar orasida to'rtinchi o'rinni egallaydi. BTS bilan kasallanganlar sonini o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2022-yil davomida respublikamiz hududida 850 (3,2%) BTS holatlari aniqlangan bo'lib, barcha onkologik kasalliklar bilan birinchi marta kasallanganlar soni esa bu davrda 26367 ni tashkil etdi. Kasallanish darajasi esa 100 000 aholiga 4,7 ga to'g'ri keladi.*

Yuqoridagi ko'rsatkichlar zamonaviy tekshiruv va davolash usullariga qaramay, BTS bilan kasallanish va o'lim darajasi dunyo bo'yicha yildan yilga ortib borayotganligi haqida xulosa qilish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

**1. National Cancer Institute**

**2. Oncogram.ru**

**3. Onkowiki**

**4. Cancer.net**

**5. Cherenkov “Onkologiya”. Moskva 2020**

6. Xenli S.D. I dr. Ejegodniy doklad natsii o sostoyaniyii raka. Natsionalnaya statistika raka. 2020

7. Klinicheskie rekomendatsii Rak tela matki. 2018 Utverjdeni Minzdravom RF.

8. Kozachenko V. P. Klinicheskaya onkoginekologiya. Moskva 2016

9. Sigel R.L., Miller K.D. i Djemal A. Statistika raka. 2018

10. Chissov V. I. , Davidov M. I. Onkologiya. Natsionalnoye rukovodstvo. Moskva 2017.